



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HOLATLARINI BAHOLASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA

Xudoyberdiyev Jamshid
"Sambhram" universiteti
ORCID: 0009-0005-2754-8556

Annotatsiya. Mazkur maqolada kambag'allik, uning yuzaga kelish sabablari, kambag'allik darajasini aniqlash va O'zbekiston hukumatiga aholining kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, shuningdek, iqtisodiy islohotlar natijasida vaqtincha zarar ko'rganlarni himoya qilish uchun davlat ijtimoiy qo'llab quvvatlash yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, qashshoqlik, ishsizlik, aholi daromadlari, ijtimoiy siyosat, kambag'allik chegarasi, tadbirkorlik, kredit, nafaqalar.

ОЦЕНКА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ – НА УРОВНЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ

Худойбердиева Джамшид
Университет «Самбрам»

Аннотация. В этой статье даны научные рекомендации и рекомендации правительству Узбекистана по определению бедности, причин ее возникновения и оказанию государственной социальной поддержки бедным и социально уязвимым слоям населения, а также временно пострадавшим от экономических реформ.

Ключевые слова: бедность, нищета, безработица, доходы населения, социальная политика, черта бедности, предпринимательство, кредит, льготы.

ASSESSMENT OF SOCIO-ECONOMIC CONDITIONS OF POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN – AT THE LEVEL OF STATE POLICY

Khudoyberdiyev Jamshid
"Sambhram" University

Abstract. This article provides scientific recommendations and recommendations to the government of Uzbekistan on determining poverty, the causes of its occurrence and providing state social support to the poor and socially vulnerable segments of the population, as well as temporarily affected by economic reforms.

Keywords: poverty, unemployment, population income, social policy, poverty line, entrepreneurship, credit, benefits.

Kirish.

Hozirgi davrda kambag'allik va qashshoqlik - bu murakkab, ko'p qirrali va "tasviriy" global muammo hisoblanadi. Bevosita kambag'allik va qashshoqlik terminlari o'zaro farqlanishiga keladigan bo'lsak, hozirda jahon bo'ylab kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumiy qabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rif ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

Qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlaridan foydalanishda cheklolarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi.

Kambag'allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik – bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarining ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi.

O'zbekistonda ilk bor kambag'allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida ko'tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, Davlatimiz rahbari shunday o'ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko'ra "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak" (Mirziyoyev, 2020).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rsatmalari va tashabbusiga binoan, kambag'allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari va me'yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi esa aynan ushbu vazifalarni ijrosini tizimli ta'minlashda amaliy qadamgina bo'lib qolmasdan, yurtimizda kambag'allikni qisqartirish borasida tarixiy institutsional islohotlar amalga oshirilayotganining yorqin ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi deb qayta tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish maqsadida hududiy boshqarmalar va tasarrufidagi tashkilotlar shu jumladan, Kambag'allikni qisqartirish va mehnat masalalari ilmiy tadqiqot instituti, Bandlikka ko'maklashish markazi, Oila va xotin-qizlar instituti, Tashqi mehnat migratsiya agentligi, "Ishga marhamat" monomarkazlari, Kasb-hunarga o'qitish markazlari, Mahallabay ishlash va Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Kambag'allik kamaytirishda dunyo bo'yicha Xitoy tajribasi namuna sifatida olindi. Lekin Kambag'allikni qisqartirish borasida bir mamlakat tajribasini boshqa mamlakatda aynan qo'llash imkoniyati, ya'ni yagona formulaning mavjud emasligi O'zbekistonda ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda, aholining ehtiyojmand qismini qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos tizimini yaratishni taqozo etdi.

Albatta, yuqorida qayd etilganidek, global miqyosida dunyo manbalarining bosh mavzusiga aylanayotgan muammolardan biri bo'lgan kambag'allikni qisqartirishning to'g'ri va eng samarali usul iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi bo'lgan to'liq ish bilan band bo'lishini ta'minlash, qishloq joylarida tadbirkorlik

uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Kambag'allikni yuzaga keltiradigan bosh omil ishsizlik darajasining yuqoriligi, ishchi kuchi qatlamining bugungi zamon talabi darajasiga mos emasligi, inson kapitali qiymatining mehnat umumdorligi nuqtai-nazaridan orqada qolayotganligida, deb baholash mumkin. Kambag'allikni kamaytirishda mehnatga to'lanadigan ish haqqini bozor konyunkturasidagi narxlar o'sishiga muvofiq oshirib borishga e'tibor qaratish lozim. Hozirgi kunda mehnatga to'lanadigan ish haqi xodimning ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan funksiyasini bajarmay kelmoqda. Bu o'z navbatida mamlakat uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi bilan ta'minlash, ishchilarni samarali ishlashga rag'batlantirish, aholini iste'mol qobiliyatini oshirish va mehnat bozorini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Kambag'allik, uni aniqlash va qisqartirish bilan bog'liq masalalar bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, tadqiqotchi va amaliyotchilar tomonidan tegishli o'rganilgan.

Xususan, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Abdurahmonov (2014), Jumanova (2008), Ibragimova (2023), Muhitdinova (2023), Xashimov (2021) va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag'allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o'rganishga harakat qilingan.

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D.Rikardo, R.Solou, A.Sen, A.Didont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti laureatlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat umumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan [15,27,33,34].

Rossiya va boshqa MDH davlatlari iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar kambag'allik qisqartirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi va o'zlarini fikr-mulohazalar berildi. Masalan: Bir qator olimlarning fikricha, Maxalina (2022), "Ijtimoiy davlat har doim odamlarga yordam ko'rsatish uchun javobgardir. Zamonaviy ijtimoiy davlatda fuqarolarga kambag'allik va qashshoqlikdan chiqish imkoniyatlari va qutulish yo'llarini ta'minlash kerak va bu ijtimoiy norma hisoblanadi" (Maxalina, 2022).

Shunday qilib, Bezverxi (2020) ijtimoiy holatlarni o'rganar ekan, "Ijtimoiy munosabatlarning umumiy insonparvarlik xalqaro hamjamiyatning Markaziy va Sharqiy Afrikaning o'ta qashshoqligi uchun javobgarlikni his qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, faravon hayot kechirayotganlar alohida mas'uliyatni his qiladilar", deb ta'kidlaydi (Bezverxiy, 2020).

Qashshoqlikni bartaraf etishga qaratilgan siyosiy yondashuvlar jamiyat va davlatda qashshoqlikning sabablari qanday tushunilishi bilan bevosita bog'liqdir (Chabanyuk, 2022).

Qashshoqlik muammolari turli ilmiy nazariyalar va mafkuraviy oqimlar doirasida turlicha izohlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar qashshoqlikning kelib chiqishini, birinchi navbatda, kambag'allarning o'ziga xos quyidagi hatti-harakatlari bilan moyillikni bildiradi:

- Hayot yo'nalishi, maqsadlari va turmush tarzini noto'g'ri individual tanlash;
- Kambag'al oiladan kelib chiqish; (alohida noto'g'ri tanlangan maqsad, va turmush tarzi bilan izohlanadi);
- Kasbiy bilimlarni yetarli emasligi;
- Kasbga mos keladigan ish o'rinlarini mavjud emasligi;
- Boshlang'ich kapitalning yetarli emasligi;
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi qiyinchiliklar.

D.Gobson, D.Saks, G.E.Slezinger, Z.Uilam, F.Uilams, R.Xayfman singari yetuk xorijiy iqtisodchi olimlar kambag'allik va aholining boshqa ijtimoiy muammolarini o'rganish borasidagi ilmiy nazariyalarni yanada boyitishga erishgan (Gelvanovskiy, 2008).


Jahon banki tadqiqotchilari iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oshirish iqtisodiy erkinliklarning yo'qligi bilan cheklanganligini aniqlandi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va kambag'allar mulkiy huquqlarini, ayniqsa yerga bo'lgan huquqlarini kengaytirishni talab qiladi. Samarasiz muassasalar, korrupsiya va siyosiy beqarorlik investitsiyalarni susaytirsam, sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilmani rivojlantirishga grantlar va hukumat yordami esa inson va jismoniy kapitalni oshirish orqali iqtisodiy o'sishga katta yordam beradi (Melikyan, Kolosova, 2014).

Boshqa bir qator tadqiqotchilar esa ko'plab buyuk imperiyalarning parokanda bo'lishi va davlatlarning inqirozga yuz tutishini o'rganib, aholini kambag'al qatlami ortishini faqatgina geografik, iqlim, din, siyosiy arboblarning kambag'allik masalasiga e'tiborsizligi kabi omillar tushuntira olmasliklarini isbotlashadi. Ularning tadqiqotlarida bardavom iqtisodiy faravonlik jamiyatda barcha qatlamlarining siyosiy va huquqiy manfaatlariga teng xizmat qiluvchi "inklyuziv" institutlar roliga bog'liq. Ya'ni ko'p fikrlilik va demokratiya jamiyatda iste'dod va ijodiy g'oyalarni qo'llashga imkon yaratib jamiyatlarni olg'a rivojlantiradi. Bunga teskari ravishda jamiyatda siyosiy va huquqiy qaror qabul qilish tor doiradagi hukmron qatlam qo'lida bo'lsa, ular boshqa aholi qatlamini ekspluatatsiya qilishlari va elita bo'lmaganlarni mablag'larini so'rish uchun "byukratik" tashkilotlar yaratiladi. Byukratik tashkilotlari mavjud davlatlar esa katta iqtisodiy rivojlanishiga erisha olmagan, chunki oddiy xalqda tadbirkorlik va investitsiya bilan shug'ullanishga katta ishtiyoq bo'lmaydi. Shu sabab, qashshoqlikga qarshi kurashadigan davlatlar, aholini siyosiy va huquqiy tengligini, ularning ovozlari inobatga olinishlari uchun sog'lom muhit yaratishsa, muammo samarali hal bo'ladi, deb ta'kidlashadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi davrda har bir davlatning rivojlanish strategiyasi uchun milliy va global miqyosida kambag'allikka qarshi kurashish sohasida zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish, gender tengligini ta'minlash, ijtimoiy himoya choralarni ko'rish va boshqa qator masalalar bo'yicha zarur choralarni amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Zero, buning zamirida shaxs, jamiyat, va davlatning bugungi va ertangi kuni, barqaror taraqqiyotining asoslari mujassamlashadi. Zero, buning zamirida, kambag'allikka qarshi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u institutsional va tizimli yondashuvni taqozo etadi. Buning uchun, kambag'allikni aniqlash uslubiyati davlat tomonidan umumiy aholi tarkibidagi kambag'al aholi qatlamini ulushini aniqlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Murojaatnomada ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra ular taxminan 12-15 foizni tashkil qildi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida men odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'lyapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir" (Mirziyoyev, 2020).



1-rasm. 2016-2024 Yillarda davlat byudjetidan ijtimoiy nafaqalar uchun yo'naltirilgan mablag'lar⁶⁸

1-rasm tahlili shundan dalolat beradiki, mamlakatimizda oxirgi 2 yil ichida ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,4 barobarga ko'paydi, nafaqalar miqdori 2 barobarga ko'paydi. Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam soni 2017-yilga nisbatan 5 baravarga oshib, 2024-yilda davlat byudjetidan 20 trln so'mdan ortiq mablag' ajratilgan. 2023-yil oktabr oyida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni 2 mln 998 mingtani yoki hududda yashaydigan jami oilalar soniga nisbatan 23,6 foizni tashkil etadi.


So'nggi yillarda O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash bo'yicha bir qancha qo'shimcha choralar ko'rildi. 2021 yildan boshlab bolali oilalarga ijtimoiy nafaqalar tayinlashda manzillilikni oshirish va shaffoflikni ta'minlash, sub'yektiv omillarni kamaytirish maqsadida respublika bo'ylab UNICEF'ning bevosita ishtirokida ishlab chiqilgan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi joriy etildi. Bu qo'shimcha tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilmasdan, 17 ta vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalari bilan elektron aloqada bo'lish orqali 70 dan ortiq turdagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni ta'minlashga imkon berdi.

Hozirgi vaqtda bolalar nafaqasini oluvchilar soni 2 mln 223 ming oilani yoki oilalar umumiy sonining 23,1 foizini tashkil etadi (18 yoshgacha bo'lgan 5 mln 5 ming bola yoki ularning umumiy sonining 42,7 foizi). Har bir oila uchun o'rtacha yillik hisobda to'lovlar miqdori har bir bola uchun 5 mln 545 ming so'm (491 dollar) yoki 2 mln 414 ming so'm (214 dollar)ni tashkil etadi. Nafaqa oladigan oilalardagi bolalarning o'rtacha soni – 2,3 bola. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam oluvchilar soni esa 75,1 ming oilani tashkil etadi (2-diagramma).

Lekin kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ular miqdorini oshirish orqali ushbu muammo to'liq yechilmaydi. Zero ushbu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biricha, "Xalqimizga baliq tutishni o'rgatishimiz, qarmoq berishimiz lozim" deydi.

Shu nuqtai nazaridan, Yurtboshimiz tomonidan Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan birga kambag'allik dasturini ishlab chiqish taklifi ilgari surildi. Bunda xalqaro me'yorlar asosida chuqur va har tomonlama kompleks izlanishlar olib borilib "kambag'allik" tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash uslublarini qamrab olgan yangi metodologiya yaratish lozimligi ta'kidlab o'tadi.

⁶⁸ Ijtimoiy himoya milliy agentligi saytining Ochiq ma'lumotlar bazasidan ihma.uz



2-rasm. 2023-yil oktyabr oyida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni⁶⁹

Kambag'allik ko'rsatkichini aniqlash, uni tahlil qilishdan maqsad davlat va fuqarolik jamiyatining kambag'al insonlar qatoriga tushib qolgan aholi qatlami uchun manzilli dasturlarni ishlab chiqish hamda agoli turmush darajasini oshirishdan iborat. BMT kambag'allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar uchun zarur bo'lgan daromadlar sifatida belgilaydi. Kambag'allik darajasi nisbiy tushuncha bo'lib, muayyan mamlakatning umumiy faravonlik darajasiga bog'liq. Jahon amaliyotida kambag'allikni hisoblashning asosiy 4 ta mezon (mutlaq, nisbiy, moddiy deprivatsiya va kambag'allikning ko'p o'lchamli indeksi) mavjud. Ushbu mezonlar bir-birini inkor etmagan holda, aksincha biri ikkinchisini to'ldiradi. Mazkur usullar mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvorligi, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi hamda ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Qator mamlakatlar milliy kambag'allik chegarasi sifatida mutloq va nisbiy usullardan foydalanadi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida kambag'allikni aniqlash bo'yicha keng tarqalgan usullar xususida batafsil to'xtaladigan bo'lsak, bularni monetar va nomonetar usullarga bo'lishimiz mumkin. Monetar uslub iste'molchilar, uy xo'jaliklarning ma'lum bir muddatda oladigan barcha daromadlari yoki o'z ehtiyojini qondirish uchun sarflanadigan iste'mol xarajatlar hajmi, ya'ni turmush darajasini belgilaydigan material ehtiyoj bilan o'lchanadi. Bunda kambag'allikni o'lchashning ko'p qirrali ko'rsatkichlardan keng foydalanadi va ular qaysidir ma'noda o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ushbu ko'rsatkichlar qulay instrument sifatida o'zini namoyon etadi va davlat tomonidan iqtisodiy, siyosiy qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

⁶⁹ Ijtimoiy himoya milliy agentligi saytining Ochiq ma'lumotlar bazasidan ihma.uz

Kambag'allikni aniqlashning turli xildagi usullar⁷⁰

1	Mutloq kambag'allik chegarasi (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ko'rsatkichi)	Alohida davlatlar uchun milliy minimal chegaralar	Asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun xarajatlar: To'g'ridan-to'g'ri kaloriya iste'moli; Oziq-ovqat energiyasini iste'mol qilish; Oziq-ovqat ulushi; Asosiy ehtiyojlar narxi
		Xalqaro solishtirmalar uchun minimal chegaralar	Kuniga 2,15 AQSH dollaridan kam daromad topadigan o'ta kambag'allar (qashshoqlar)
			Kuniga 3,65 AQSH dollaridan kam daromad to'g'ri keladigan kambag'allar
2	Nisbiy kambag'allik chegarasi	O'rtacha daromadga ega bo'lgan aholi qatlami	Nisbatan kam daromad ko'radiganlar (o'rtacha daromadning 50% yoki 60% teng daromadga ega bo'lganlar, alohida olingan mamlakatlar bo'yicha)
			Belgilangan vaqt mobaynida nisbatan kam bo'lgan daromadga ega bo'lganlar
			Kambag'allik chegarasida bo'lganlar
3	Moddiy va ijtimoiy deprivatsiya		<ul style="list-style-type: none"> - Oziq-ovqat iste'moli quvvati bo'yicha milliy yashash minimumi (ob-havo sharoitiga bog'liq, aholining shahar va qishloqlarda istiqomat qilish nisbati hamda shaxsiy uy-joy yoki ijaraga turadiganlarning ulushidan kelib chiqib); - Aholi daromadlarining tabaqalanishi: Jini Indeksi; fondlar koeffitsiyenti (kvintel, detsil)
			<ul style="list-style-type: none"> - tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati darajasi; - ta'lim imkoniyatlarining darajasi; - ijtimoiy himoya tarmoqlarining darajasi; - kredit bozorini baholash darajasi; - nogironlar uchun sharoitlarning ko'rsatkichlari, - bandlikni ta'minlanish darajasi
4	Ko'p o'lchamli kambag'allik- xalqaro maydonda taqqoslash imkoni bo'lgan ko'rsatkichlar Inson taraqqiyoti indeksi (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi)		<ul style="list-style-type: none"> - tug'ilishda kutilayotgan umr ko'rish- uzoq va sog'lom hayotni baholash; - kutilayotgan maktab yillari-yosh avlodning bilim olish imkoniyatini baholash - o'rtacha ta'lim yillari-keksa avlodning bilimga kirishini baholash - aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (YaMM)-turmush darajasini baholash
5	Milliy baholash tizimi bo'yicha		(oziq- ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlari uchun zarur bo'lgan) Minimal iste'mol xarajatlari

Kambag'allikning mutloq konsepsiyasi. Ushbu konsepsiya "kambag'allik chegarasi" tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Kambag'allik chegarasi mavjud daromad, yalpi daromad yoki iste'molning shunday darajasiki, agar ular bu darajada past bo'lganda odam kambag'al hisoblanadi.

Mutloq kambag'allik chegarasi: oziq-ovqat savati (to'yimli moddalar iste'mol qilish) va ozgina qo'shimcha boshqa xarajatlarga yo'l qo'yish imkoniga asoslangan absolyut minimal turmush darajasi tushuniladi. Mutloq kambag'allik ko'pincha iste'mol yoki daromad darajasi kambag'allik chegarasidan past bo'lgan odamlar yoki uy xo'jaliklari soni orqali o'lchanadi. Mutloq kambag'allik chegaralari ovqatlanishining minimal miqdori yoki asosiy ehtiyojlar narxi kabi qat'iy qiymatlarga bog'liq. Buni o'lchash uchun turli yondashuvlar bo'yicha chegara qiymati tanlanadi. Masalan, ba'zi mutloq kambag'allik chegaralari to'g'ridan-to'g'ri kaloriya iste'moliga nisbatan chegara qiymatini belgilaydi. Jahon banki mutloq kambag'allik chegarasi

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligi ma'lumotlari

sifatida 3,65 AQSH dollari hisobiga (dollar kursi xarid qobilyati pariteti bo'yicha hisoblanadi) kun kechirishini belgilab qo'ygan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar mutloq kambag'allik chegarasining o'rtacha yillik miqdorini aniqlash uchun aholi jon boshiga YaIMning 25 foizi qabul qilingan bo'lib, aksar rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Kanada, Niderlandiya) mazkur ko'rsatkich nisbatan yuqoridir. Rivojlangan mamlakatlardagi aksariyat fuqarolar internet yoki mashina yashash uchun zarurat, deb o'ylashlari mumkin, garchi ba'zi mamlakatlarda hatto toza suv ham hashamatdir.

Shu sababli, ba'zi institutlar kambag'allikni mintaqa yoki mamlakatga xos nisbiy qashshoqlik chegaralari bilan o'lchashni afzal ko'radi.

Kambag'allikning nisbiy konsepsiyasi. Kambag'allikning mazkur ko'rsatkichi kambag'allikning nisbiy chegarasini belgilaydi va aholining amaldagi daromadini boshqalar bilan taqqoslash imkonini yaratadi. Aholining real daromadlari ortib borayotgan sharoitda taqsimlash printsipi o'zgarmasa, nisbiy kambag'allik avvaldigidek saqlanib qoladi. Bunda, nisbiy kambag'allik konsepsiyasi tengsizlik konsepsiyasining tarkibiy qismi degan xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Biroq bu tengsizlik qancha kam bo'lsa, nisbiy kambag'allik shunchalik kam bo'ladi, degan ma'noni anglatmaydi.

Nisbiy kambag'allik konsepsiyasi asoschisi, ingliz sotsiologi P.Taunsend bu kategoriyani iqtisodiy resurslar yetishmasligi oqibatida mazkur jamiyatning ko'pchilik a'zolari uchun odatiy turmush tarzini davom ettirish imkoniyati bo'lmasligi sifatida ta'riflangan. Uning kambag'allikni tahlil etish usuli "Ko'p o'lchamli deprivatsiya" tushunchasiga asoslangan.

Bunday holatni u "shaxs, oila yoki guruhning jamiyat yoki umuman millat manzarasidagi kuzatilayotgan va asoslanadigan nochor ahvoli" sifatida tushungan.

Nisbiy kambag'allik chegaralari: Nisbiy kambag'allik chegarasi to'g'risida qaror qabul qilish uchun bir xil iqtisodiyotdagi turli shaxslarni solishtirish uchun o'rtacha daromaddan foydalanadi. Nisbiy kambag'allik chegaralari o'z chegaralarini ma'lum bir mamlakatdagi shaxslarning daromadlariga va shaxsning daromadi jamiyatning qolgan qismidan qanday farq qilishiga qarab belgilaydi.

Shunday qilib, bu yondashuv shaxsni bir jamiyatdagi turli shaxslar bilan solishtirish orqali kambag'al yoki yo'qligini hal qiladi. Ushbu yondashuv jamiyatdagi tengsizlikni hisobga olgan holda mutlaq kambag'allik chegarasiga o'xshash deb qaralishi mumkin. Nisbiy kambag'allik chegaralari ular yashayotgan jamiyatga qaraganda kam daromadli odamlarning individual kambag'allikligini o'lchash uchun kuchli vositadir.

Haqiqatan ham, Yevropa mamlakatidagi jismoniy shaxs Sahroi Kabir mintaqasidagi jismoniy shaxsga qaraganda ko'proq daromad olishi mumkin. Shunga qaramay, bu shaxs o'zi yashayotgan iqtisodiyotda shaxsning nisbatan past daromadi tufayli imkoniyatlar yoki imkotiyozlardan chetda qolishi mumkin. Ammo shunga qaramay, bir qator davlatlar kambag'allik chegarasini belgilashda nisbiy usuldan foydalaniladi. Misol uchun, Vengriya, Estoniya, Belarus, Chernogoriya, Rossiya kabi davlatlarda aholi daromadlari mediana qiymatining 60 foizi kambag'allik chegarasi sifatida qabul qilingan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich mos ravishda Polshada 50, Ukrainada 75 foizni tashkil etadi.

Moddiy va ijtimoiy deprivatsiya. Yuqoridagi usullardan tashqari, amaliyotda monetar usullarning to'ldiruvchisi sifatida aholining moddiy va ijtimoiy imkoniyatlardan qoniqishlarini baholash (deprivatsiya) usulidan foydalaniladi. Bunda, kambag'allik chegarasi insonning ma'lum bir tovar va xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini baholash cheklangan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 9 turdagi tovar va xizmatlarning 4 tasidan foydalana olmaydigan inson kambag'al hisoblanadi.

Ko'p o'lchamli usul (Inson taraqqiyoti indeksi). Sanab o'tilgan usullarda kishining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda hech qanday to'siqlarsiz ishtirok eta olishini miqdoriy baholash cheklangan. Shuning uchun jahon tajribasida kambag'allikni ko'p o'lchamli baholash usulidan (Inson taraqqiyot indeksi) ham foydalaniladi. O'rtacha umr ko'rish, ta'lim (o'rtacha tugallangan o'qish yillari) va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichlarining statistik

aralash indeksi bo'lib, mamlakatlarni inson taraqqiyotining to'rt darajaga ajratish uchun ishlatiladi. Umr davomiyligi, ta'lim darajasi va aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (YaIM) yuqoriroq bo'lsa, mamlakat inson taraqqiyoti indeksining yuqori darajasiga erishadi. Ko'p o'lchamli usulda uy xo'jaligi yoki kishining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanishini ifodalovchi qator indikatorlarga vazn berish orqali binar usulda ("ha" javobiga -1, "yo'q" javobiga -0) hisoblanadi. BMTning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi tomonidan ko'p o'lchamli kambag'allik darajasini hisoblashda aholi turmush darajasi, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim bandlik va atrof-muhit ko'rsatkichlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

Milliy baholash tizimi (Minimal iste'mol xarajatlari). BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, BMTning Taraqqiyot dasturi, Jahon Banki, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijasida mamlakatimizda kambag'allik darajasini yoki chegarasini aniqlash uchun oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlardan iborat bo'lgan hamda bir kishi uchun zarur bo'lgan minimal iste'mol xarajatlari qiymat tushunchasi tavsiya etildi. Mazkur usulning o'ziga xosligi aholi real iste'moli tarkibi va xarakteridan kelib chiqadi.

Uy xo'jaliklari so'rovi natijalaridan kelib chiqib minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasi hisoblab chiqiladi hamda ushbu ma'lumotlar aholi turmush darajasiga ta'sirini o'rganish va aholi faravonligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha choralarni ishlab chiqishda asos bo'ladi.

Kambag'allikka qarshi kurash mamlakatimizda nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. Bu borada belgilangan maqsadga erishishda mazkur vazifani amalga oshirish bilan bog'liq ko'rsatkichlar va dasturlarni real holatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqish eng samarali yo'l sifatida baholanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, shaxs, jamiyat va davlatning bugungi va ertangi kuni, barqaror taraqqiyotning asoslari mujassamdir. Shu bilan birga, kambag'allikni bartaraf etish, buning uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish amalda mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichga o'tishini ta'minlaydi. Ayni vaqtda kambag'allikka qarshi kurashish uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u instutsional va tizimli yondashuvni taqozo etadi. Buning natijasida, kambag'allikni qisqartirish va aholi faravonligini oshirish maqsadida qator vazifalarni amalga oshirish lozim, jumladan:

1. BMT taraqqiyoti dasturi, Jahon banki kabi qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" loyihasini nazorat qilish;

2. Kambag'allik aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash bo'yicha Xalqaro ekspertlar bilan "Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati"ni baholash va tahlil natijalarni kuzatib borish. Bunda aholining kambag'al qatlamiga kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan birgalikda ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb hunarga o'qitish, ichimlik suvi, energiya va yo'l infratuzilmasi bolan bog'liq kompleks muammolarni hal etish nazarda tutadi;

3. Ehtiyojmand aholini to'g'ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishlash tizimi yaratiladi.

4. "Ijtimoiy reyestr" barcha ma'lumotlarni qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko'rsatish;

5. Ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me'yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta'minlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish;

6. Hududlarning mavjud salohiyatini kambag'allikni qisqartirish uchun safarbar etish yo'llari ishlab chiqish, bunda:

a. hududlardagi mavjud maxsus industrial zonalaridagi loyihalarni amalga oshirishda to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'riladi;

b. ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy ko'mak tamoyili asosida har bir tuman va shahar bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqish lozim.

7. Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o'rgatish, tadbirkorlik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta'minlash va doimiy daromad manbaini yaratishning yangi mexanizmini amaliyotga joriy etish;

8. Aholining sog'lig'ini mustahkamlash;

9. Xotin-qizlar va bolalar yashash shart-sharoitlarini yaxshilash;

10. Oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha choralarni ishlab chiqish maqsadida aholi tarkibini, mamlakatdagi demografik o'zgarishlarni baholashga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

11. Shahar va boshqa aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, mehnat resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanishning uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognoz va dasturlarini tayyorlash;

12. Aholini ro'yxatga olishlar oralig'idagi davrda aholi soni va tarkibining joriy hisobini, hisob-kitoblarini hamda prognozlarini amalga oshirish;

13. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish, ya'ni kambag'allikni qisqartirish aloqador va mas'ul xorijiy institutlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Xulosa va takliflar.

Albatta, Prezidentimiz qayd etganidek, kambag'allikni kamaytirish oylik va nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarni o'qitish, sifatli davolash, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak.

Shu o'rinda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dasturi loyahasiga ayrim fikr, g'oya va takliflarni bayon qilishni ma'qul topdik. Xususan,

- Kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush darajasini oshirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvorligi sifatida ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bunda ishga joylashish imkoniyatini yaratuvchi, tegishli davlat organlari bir qatorda, fuqoralarning mas'uliyatini oshiruvchi, har bir insonning shaxsiy sharoitini hisobga oluvchi, o'ziga mustaqil yordam bera olmaydiganlarni qo'llab-quvvatlovchi faol va ta'sirchan siyosat yuritish, ushbu maqsadlarga jamiyat va xususiy sektor resurslarini jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi;

- Nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda odamlarimizni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlarni ishlab chiqish va kasbga o'qitishda nodavlat tashkilotlarning faolligini kuchaytirish;

- Fuqoralarning oilaviy byudjeti daromadlarini oshirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida kasanachilik mehnatini rivojlantirish kerak. Bunda zamonaviy mashinalar, uskunalar, xomashyo materiallarni xarid qilish uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini, ularga marketingni amalga oshirish va kasanachilik mahsulotini ishlab chiqishni tashkil etish maqsadida buyurtmachilarni topishga ko'maklashish, bozorda talab yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishda boshqa tadbirkorlik subyektlari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ko'maklashish;

- Ishga joylashishga muhtoj shaxslarga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va amalaka oshirish tizimini kengaytirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda, maqbul shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralar ko'rish;

- Aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, buning uchun ijtimoiy mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali jon boshiga to'g'ri keladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini, ya'ni mehnat unumdorligini keskin oshirish;

- Kambag'allik holatida yoki chegarasida yashayotgan aholi qatlamini kambag'allikdan chiqarish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlardan va aholi tomorqalaridan maqsadli, samarali foydalanishda mikroklaster tuzilmalarini yaratish maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekitonda kambag'allikni kamaytirish muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu muammo mamlakatdagi islohatlarning eng og'ir yo'nalishi ekanligini ta'kidlagan holda uni kamaytirish uchun aholining barcha qatlami birlashishi zarur. Xalqimiz faravonligiga erishish, nochor oilalarga doimiy daromad manbai yaratishda faol ishirok etish bu boradagi islohatlarni jadallashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Abdurahmonov Q.X. (2014) "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi" o'quv qo'llanma. Ikkinchi nashr. –Toshkent -14 bet.

Bezverxi A.I. (2020) "Ijtimoiy munosabatlarning umumiy insonparvarlik xalqaro hamjamiyatning Markaziy va Sharqiy Afrikaning o'ta qashshoqligi uchun javobgarlikni his qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, faravon hayot kechirayotganlar alohida mas'uliyatni his qiladilar ", deb ta'kidlaydi. -178-183 b.

Gelvanovskiy M. (2008) Konkurentosposobnost v mikro- mezo- i makrourovnom izmereniyax // Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal, №3 – S. 66-77.

Ibragimova N.M. (2023) "The Public Efficiency Evaluation of Infrastructure Projects in Conditions of Modern Scientific and Technological Development" // Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences = Журнал Сибирского федерального университета. Гуманитарные науки. – № 16 (3). – P. 442-453.

Jumanova R.F. (2008) "Aholi turmush darajasi. ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari"/7 Iqtisod fanlari nomzodi olish uchun diss. avtoreferati. –T. - 11 b.

Maxalina O.M., (2022) "Ijtimoiy davlat har doim odamlarga yordam ko'rsatish uchun javobgardir. Zamonaviy ijtimoiy davlatda fuqarolarga kambag'allik va qashshoqlikdan chiqish imkoniyatlari va qutulish yo'llarini ta'minlash kerak va bu ijtimoiy norma hisoblanadi ". -56-66.

Melikyan G.G., Kolosova R.P. (2014) *Ekonomika truda i sosialno-trudovie otnosheniya*. – Moskva, – S.300.

Mirziyoyev Sh.M. (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvaridagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi gazetasi", 2020 yil 25 yanvar

Muxitdinova M.Z. (2023) "Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishning iqtisodiy mexanizmi" mavzusida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 21-31 betlar.

Xashimov P.Z. (2021) "O'zbekistonda aholi migratsiyasining xususiyatlari" Iqtisod va moliya jurnali, 10(57)

Chabanyuk O.V. (2022) Problemy sistemy sotsial'noi zashchity maloimushchikh zhitelei strany i puti ikh resheniya [Problems of the social protection system for low-income residents of the country and ways to solve them]. Vestnik Moskovskogo finansovo-yuridicheskogo universiteta MFYuA [Bulletin of the Moscow Financial and Legal University], 1, pp. 208-213.